

TEST VARIANTI RAQAMI: **1939496****BIOLOGIYA**

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig‘idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblariningizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini **@dtmxizmatbot** orqali jo‘nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO‘G‘RI KO‘CHIRING!

1	9	3	9	4	9	6
2	1	1	1	1	1	1
3	2	2	2	2	2	2
4	3	3	3	3	3	3
5	4	4	4	4	4	4
6	5	5	5	5	5	5
7	6	6	6	6	6	6
8	7	7	7	7	7	7
9	8	8	8	8	8	8
0	9	9	9	9	9	9

1. Evolutsiya natijasida organik olamda ogohlantiruvchi rang (a), himoya rangi (b) orqali moslashgan organizmlar to‘g‘ri juftlangan javobni aniqlang.
- 1) qovog‘ari tana rangi ko‘zga yaqqol tashlanadi; 2) xonqizi qo‘ng‘izi tana rangi bilan ko‘zga yaqqol tashlanadi; 3) ildam kaltakesak qum rangida bo‘ladi; 4) kuropatka yozda bir qishda boshqa rangda bo‘ladi; 5) kallima kapalagi qanotlari shakli, naqsh va tomirlari bargga o‘xhash bo‘ladi.
- A) a - 5; b - 2 B) a - 3; b - 1
C) a - 1; b - 3 D) a - 2; b - 5
2. Fotosintezning qorong‘ulik bosqichida sodir bo‘ladigan jarayonlarni aniqlang.
- 1) kislорodning hosil bo‘lishi; 2) glukozaning hosil bo‘lishi; 3) *ATF* dan *ADF + H₃PO₄* ning hosil bo‘lishi; 4) *ATF* ning hosil bo‘lishi; 5) suvning fotolizga uchrashi; 6) *ATF* ning sarflanishi.
- A) 1, 2, 5 B) 4, 5, 6 C) 2, 3, 6 D) 1, 4, 5
3. "O‘simliklar anatomiyasi" nomli kitobning muallifini aniqlang.
- A) R.Guk B) K.Linney C) N.Gryu
D) A.Levenguk
4. Gastrulyatsiya jarayoni blastula devorining qat-qat joylashuv yo‘li bilan amalga oshadigan organizmlarni aniqlang.
- 1) povituxa qurbaqasi; 2) kolibri; 3) dengiz likopchasi; 4) xameleon; 5) qizil korall polip; 6) salamandra; 7) agama; 8) kvaksha baqasi.
- A) 1, 8 B) 3, 5 C) 2, 7 D) 4, 6
5. Tariq o‘simgilida poyasining baland va donining yirik bo‘lishi poyaning past va donining mayda bo‘lishi ustidan to‘liq dominantlik qiladi. Tajribada digeterozigotali tariq navlari o‘zaro chatishtirildi. Natijada olingan 1200ta baland poyali o‘simgilarning nechtasida doni mayda bo‘ladi?
- A) 400 B) 100 C) 600 D) 300
6. Topinambur tugunagining rangi ikki juft komplementar genlar yordamida irlashtiriladi. Genotipda *A* va *B* genlari qizil, *A* va *b* genlari sariq, *a* va *B* genlari binafsha ranglarni, *aabb* holatda tugunakni oq bo‘lishini ta’minlaydi. Rangning to‘liq yuzaga chiqishi *DD* modifikator genga bog‘liq. Modifikator genlar geterozigota holatda ranglarning och, retsessiv gomozigota holatda esa rang yuzaga chiqmaydi tugunak oq bo‘ladi. Digeterozigota och sariq va och binafsha tugunakli o‘simgil o‘zaro chatishtirilganda, olingan avlodlarning fenotipik nisbatlarini aniqlang.
- A) 1 qizil : 2 och-qizil : 1 binafsha : 2 och-binafsha : 2 sariq : 1 och-sariq : 7 oq
B) 1 qizil : 2 och-qizil : 1 binafsha : 2 och-binafsha : 1 sariq : 2 och-sariq : 7 oq
C) 1 qizil : 2 och-qizil : 1 binafsha : 2 och-binafsha : 1 sariq : 3 och-sariq : 6 oq
D) 1 qizil : 2 och-qizil : 2 binafsha : 1 och-binafsha : 1 sariq : 2 och-sariq : 7 oq

- 7.** Quyidagi organizmlarga xos bo'lgan tushunchalar to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni belgilang.
 a) yo'sinlar; b) qirqbo'g'imlar; c) ochiq urug'lilar; d) yopiq urug'lilar; e) qirqquloqlar;
 1) sporofill; 2) poya; 3) barg; 4) ildiz tizimi;
 5) urug'kurtak; 6) arxegoniy; 7) murtak xalta;
 8) chang donasi; 9) o'tkazuvchi nay; 10) sorus.
 A) a - 2; b - 8; c - 5; d - 6; e - 10
 B) a - 8; b - 3; c - 9; d - 7; e - 2
 C) a - 3; b - 4; c - 5; d - 9; e - 6
 D) a - 2; b - 7; c - 4; d - 5; e - 1
- 8.** Aminokislotalarni aniqlang.
 A) oksiprolin, guanin B) gistidin, sitozin
 C) prolin, oksiprolin D) tirozin, mum
- 9.** Geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega bo'lgan prokariot (a) va eukariot (b) organizmlarni aniqlang.
 1) agrobakterium; 2) azot bakteriyasi; 3) sil tayoqchasi bakteriyasi; 4) midiya; 5) parpi;
 6) zarpechak.
 A) a - 2, 3; b - 5, 6 B) a - 3, 5; b - 1, 6
 C) a - 1, 3; b - 4, 6 D) a - 2, 6; b - 1, 4
- 10.** Lososning qon aylanish sistemasiga xos bo'lgan to'g'ri ma'lumot keltirilgan javobni aniqlang.
 A) jabra arteriyasi va qorin aortasida venoz qon oqadi
 B) qorin aorta qon tomiridagi arterial qon orqa aortaga o'tadi
 C) qorin aortasidan qon yurak bo'lmachasiga quyiladi
 D) qorin aorta qon tomiri yurak qorinchasiga qon olib boradi
- 11.** Bug'doy (a), temirchak (b), tripanosoma (c) uchun mos tushunchalar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
 A) a - produtsent; b - konsument; c - xemotrof organizm
 B) a - xemotrof organizm; b - yirtqich organizm; c - parazit organizm
 C) a - produtsent; b - konsument; c - parazit organizm
 D) a - konsument; b - geterotrof organizm; c - parazit organizm
- 12.** Yopishqoq lishaynik tanasida suvo't va zamburug'larning birga hayot kechirishi organizmlar o'zaro munosabatining qaysi turiga misol bo'ladi?
 A) neytralizm B) mutualizm C) parazitizm
 D) o'zaro raqobat
- 13.** Kuropatkaning yozda bir rangda, qishda boshqa bir rangda bo'lishi, terak mevasining tuklar yordamida uchishi (a); o'simliklarda ginkgolar oilasi arealining torayishi (b) qanday biologik qonuniyatlarni aks ettiradi?
 A) a - aromorfoz; b - umumiyy degeneratsiya
 B) a - biologik regress; b - aromorfoz
 C) a - biologik progress; b - biologik regress
 D) a - idioadaptatsiya; b - umumiyy degeneratsiya
- 14.** Nazariy jihatdan energetik almashinuv bosqichida noma'lum miqdordagi glukozaning to'liqsiz va to'liq parchalanishidan 8800 kJ energiya va 118 molekula ATF hosil bo'lgan. Necha molekula glukoza to'liq parchalangan?
 A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
- 15.** Tish kasalligini aniqlang.
 A) nefrit B) rinit C) kolit D) pulpit
- 16.** Chala o'zgarish bilan rivojlanadigan turkumlarni aniqlang.
 A) bitlar, burgalar B) ninachilar, qandalalar
 C) termitlar, ikki qanotlilar
 D) to'g'riqanotlilar, pardaqanotlilar
- 17.** To'g'ri fikrlar berilgan javobni aniqlang.
 1) transpozaza – zaharli toksin parchalovchi ferment sintezlovchi genetik tuzilma;
 2) bakteriyalarda genlar mutatsiyasini o'z o'zidan sodir bo'lishini bakteriya koloniylaridan replika ko'chirish usulini qo'llash orqali D. Errel isbotlagan;
 3) pnevmokokk bakteriyasi R-shtamming sirtida kapsula bo'lmaydi va sirti g'adir-budur bo'ladi; 4) insonlardagi irlsiy kasalliklarni odam hujayralariga funksional genlarni kiritish orqali davolash texnologiyasi genlar terapiyasi deyiladi.
 A) 3, 4 B) 1, 4 C) 1, 3 D) 2, 3

- 18.** Xo'rozning spermatozoid hujayrasida $n=39$ bo'lsa, urg'ochisining epidermis hujayrasidagi xromosomalar holatini aniqlang.
- A) 39 juft autosoma va jinsiy X yoki Y xromosoma
 B) 76 ta autosoma va jinsiy XY xromosoma
 C) 39 juft autosoma va jinsiy XX xromosoma
 D) 78 ta autosoma va faqat jinsiy X xromosoma
- 19.** Har xil turga kiruvchi organizmlar orasidagi (a) va bir turga kiruvchi organizmlar orasidagi (b) kurash shakllariga mos keluvchi misollar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) kartoshka o'simligi ildizida bo'rtma nematodaning bo'rtma hosil qilishi;
 2) kannibalizm; 3) suvda erigan kislороднинг kamayishi hisobiga baliqlarning halok bo'lishi;
 4) burgutning toshbaqani osmondan qattiq yerga tashlab parchalab yeyishi; 5) juftlashish oldidan karqurlarning xo'rozlari ochiq maydonda o'zaro bahslashishi.
- A) a - 1; b - 5 B) a - 2; b - 3
 C) a - 3; b - 2 D) a - 2; b - 4
- 20.** Umurtqasiz hayvonlarning ajdodlari haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
- 1) trilobitlar halqali chuvalchanglar bilan bo'g'imoyoqlilar o'rtasidagi oraliq hayvonlar hisoblanadi; 2) hasharotlar o'rgimchaksimonlardan paydo bo'lgan;
 3) halqali chuvalchanglar erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan kelib chiqqan;
 4) to'garak chuvalchanglar yassi chuvalchanglardan kelib chiqqan;
 5) baliqlarning qadimgi ajdodlari lansetnikka o'xshash sodda tuzilgan xordalilar bo'lgan.
- A) 2, 5 B) 3, 5 C) 1, 3 D) 4, 5
- 21.** Nuqtalar o'rniغا mos javobni tanlang.
 Odamda kichik qon aylanish doirasi venalari... (1), katta qon aylanish doirasi arteriyalari... (2).
- A) 1 - o'pkalarga qon olib keladi; 2 - yurakdan qon olib ketadi
 B) 1 - yurakdan qon olib ketadi; 2 - yurakka qon olib keladi
 C) 1 - o'pkalardan qon olib ketadi; 2 - yurakdan qon olib ketadi
 D) 1 - yurakka qon olib keladi; 2 - o'pkalardan qon olib ketadi

22. Chuchuk suv gidrasining jinssiz (a) va jinsiy (b) ko'payish ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- 1) zigota; 2) kurtaklarning paydo bo'lishi;
 3) bo'rtmachalarning paydo bo'lishi; 4) ona organizmidan ajralishi; 5) jinsiy hujayralarning yetilishi; 6) paypaslagichlar, og'iz teshigi paydo bo'lishi; 7) yosh gidra; 8) urug'lanishning sodir bo'lishi

A) a - 3, 4, 6, 7; b - 2, 8, 5, 1

B) a - 2, 4, 1, 7; b - 3, 5, 7, 6

C) a - 2, 4, 6, 7; b - 3, 7, 8

D) a - 2, 6, 7; b - 3, 5, 8, 1

23. Jadvalning qaysi qatorida garmonlar, ular ishlab chiqaradigan ichki sekretsiya bezlari va garmonlarining funksiyalari muvofiq tarzda berilgan?

Nº	Gormon	Ichki sekretsiya bezi	Funksiyasi
1.	Glyuko-kortikoid	Buyrak usti bezin po'stloq qismi	Oqsil va uglevod almashinuvini boshqaradi
2.	Androgen	Buyrak usti bezin miya qismi	Arterial qon bosimini oshiradi
3.	Estrogen	Buyrak usti bezin miya qismi	Jinsiy bezlar funksiyasini susaytiradi
4.	Timozin	Ayrisimon bez	Jinsiy bezlar funksiyasini kuchaytiradi
5.	Vazo-pressin	Gipofizning orqa bo'lagi	Qon tomirlarini toraytiradi
6.	Intermidin	Gipofizning o'rta bo'lagi	Pigment almashinuvini boshqaradi

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 2, 3, 5 D) 1, 5, 6

24. Zang zamburug'i uchun mos keluvchi ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) spora orqali ko'payadi; 2) geterotrof organizm; 3) xemotrof organizm; 4) avtotrof organizm; 5) prokariot organizm; 6) o'simlik ildizida endotrof mikoriza hosil qiladi

A) 1, 2 B) 5, 6 C) 2, 3 D) 3, 4

25. Jigar qurtining hayot siklida 1 va 2 raqamlarga muvofiq ravishda mos keladigan bosqichlar qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?
 voyaga yetgan jigar qurti → urug‘langan tuxum
 → 1 → oraliq xo‘jayin tanasidagi lichinka → 2
 → sista → 3


- A) 1 - finna; 2 - kiprikli lichinka
 B) 1 - dumli lichinka; 2 - kiprikli lichinka
 C) 1 - suv shillig‘i tanasidagi lichinka; 2 - asosiy xo‘jayin tanasidagi finna
 D) 1 - kiprikli lichinka; 2 - dumli lichinka

26. Nuqtalar o‘rniga mos javobni tanlang.
 Odamlarda qonning normal ivishini va rangni normal ajratish qobiliyatini ifoda etuvchi genlar

- A) allel genlar deyiladi
 B) autosoma xromosomalarida joylashgan
 C) jinsiy xromosomada joylashgan
 D) biri ikkinchisi ustidan dominantlik qiladi

27. Hayotning molekula (a) va organizm (b) tuzilish darajasiga mos keladigan ma’lumotlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
 1) jigar qurtining sista hosil qilishi;
 2) glikolipidlar uglevod va lipidning birikishidan hosil bo‘lishi; 3) gidraning kurtaklanishi;
 4) aminokislotalardan gemoglobin hosil bo‘lishi;
 5) uglerodning davriy aylanishi.

- A) a - 2; b - 5 B) a - 2; b - 5
 C) a - 1; b - 4 D) a - 5; b - 3



Sxemalarda ifodalangan to‘pgul turlarini aniqlang.

- A) 1 - oddiy soyabon, 2 - murakkab soyabon,
 3 - qalqoncha
 B) 1 - murakkab soyabon, 2 - murakkab boshoq,
 3 - oddiy soyabon
 C) 1 - murakkab shingil, 2 - murakkab boshoq,
 3 - savatcha
 D) 1 - murakkab soyabon, 2 - murakkab boshoq,
 3 - oddiy shingil
29. Berilgan organizmlardan birinchi tartibli konsumentlar(birinchi darajali konsumentlar) to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
 1) sariq chayon; 2) chipor ilon; 3) cho‘chqa tasmasimon chuvalchangi; 4) so‘na; 5) karam kapalagi qurti; 6) kaptar; 7) jayron; 8) jirafa; 9) qirg‘iy; 10) zubr; 11) boyo‘g‘li; 12) bo‘ka; 13) bug‘u; 14) qutb meduzasi; 15) qum bo‘g‘ma iloni; 16) qora kalxat; 17) musicha.

- A) 5, 7, 8, 10, 13 B) 3, 9, 11, 13, 16
 C) 1, 4, 12, 15, 16 D) 2, 6, 7, 14, 17

30. Psilofitlarning qirqulloqlardan farq qiluvchi jihatlarini aniqlang.

- A) suvdan quruqlikka chiqqan dastlabki quruqlik o‘simgiliklari; poyaning paydo bo‘lishi ilk aromorfoz hisoblanadi
 B) suvdan quruqlikka chiqqan dastlabki quruqlik o‘simgiliklari; ildiz tizimiga ega
 C) bargning paydo bo‘lishi ilk aromorfoz hisoblanadi; vegetativ organ – poyaga ega
 D) sporalari sporangiylarda yetiladi; bargning paydo bo‘lishi ilk aromorfoz hisoblanadi

Test varianti “Test topshiriqlari to‘plami 2019” asosida shakllantirilgan:

1 – 106-bet 14	7 – 70-bet 11	13 – 109-bet 8	19 – 98-bet 5	25 – 79-bet 72
2 – 25-bet 35	8 – 12-bet 10	14 – 19-bet 9	20 – 80-bet 1	26 – 39-bet 20
3 – 7-bet 5	9 – 27-bet 9	15 – 83-bet 8	21 – 88-bet 13	27 – 10-bet 26
4 – 35-bet 16	10 – 71-bet 12	16 – 56-bet 44	22 – 30-bet 8	28 – 67-bet 36
5 – 40-bet 26	11 – 121-bet 45	17 – 50-bet 11	23 – 96-bet 14	29 – 126-bet 14
6 – 48-bet 74	12 – 118-bet 25	18 – 20-bet 5	24 – 15-bet 14	30 – 59-bet 18